

## ELEKTRON TA'LIM RESURLARINING PEDAGOGIK SALOHIYATI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

*Ubaydullayeva Sharofat G'ulom qizi*

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*ubaydulloyevasharofat@buxdpi.uz*

<https://orcid.org/0009-0008-8359-2262>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik salohiyati o'rganilgan. Tadqiqot davomida elektron ta'lim vositalarining o'quvchilarning o'qish savodxonligi, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'рни tahlil qilindi. Olingan natijalar elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda axborot madaniyatini shakllantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Maqolada amaliy tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Elektron ta'lim resurslari, axborot madaniyati, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, interaktiv metodlar, multimedia vositalari, pedagogik salohiyat, raqamli texnologiyalar, axborot bilan ishlash, ta'lim samaradorligi.

## PEDAGOGICAL CAPACITY OF ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES AS A MEANS OF FORMING THE INFORMATION CULTURE OF PRIMARY STUDENTS

**Annotation.** This article studies the pedagogical potential of electronic educational resources in the formation of information culture of primary school students. During the study, the role of electronic educational resources in the development of students' reading literacy, skills in searching, analyzing and effectively using information was analyzed. The results obtained showed that the use of electronic educational resources is an important tool in increasing the level of knowledge of students, developing independent thinking and forming information culture. The article also develops practical recommendations.

**Keywords.** Electronic educational resources, information culture, primary education, reading literacy, interactive methods, multimedia tools, pedagogical potential, digital technologies, working with information, educational effectiveness.

## ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ЭЛЕКТРОННЫХ УЧЕБНЫХ РЕСУРСОВ КАК СРЕДСТВО ФОРМИРОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

**Аннотация.** В данной статье исследуется педагогический потенциал электронных учебных ресурсов в формировании информационной культуры учащихся начальной школы. В ходе исследования анализируется роль электронных учебных ресурсов в развитии у учащихся навыков чтения, умения искать, анализировать и

*эффективно использовать информацию. Полученные результаты показали, что использование электронных учебных ресурсов является важным инструментом повышения уровня знаний учащихся, развития самостоятельного мышления и формирования информационной культуры. В статье также разработаны практические рекомендации.*

**Ключевые слова.** *Электронные учебные ресурсы, информационная культура, начальное образование, чтение, интерактивные методы, мультимедийные средства, педагогический потенциал, цифровые технологии, работа с информацией, эффективность обучения.*

## KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan integratsiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uning sifat va samaradorligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan bir qator farmon va qarorlarda ta'lim tizimini raqamlashtirish, elektron ta'lim resurslarini keng joriy etish hamda o'quvchilarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron ta'lim muhitini rivojlantirish, innovatsion o'quv vositalaridan samarali foydalanish vazifalari belgilab berilgan. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan qarorlarda o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy ta'lim resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirish zarurligi ta'kidlangan. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishni dolzarb masalaga aylantiradi.

Bugungi kunda elektron ta'lim resurslari nafaqat bilim berish vositasi, balki o'quvchilarning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlarini

inobatga olgan holda, interaktiv va multimediya vositalaridan foydalanish ularning qiziqishini oshiradi, bilimlarni oson va samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, elektron ta'lim resurslarining pedagogik salohiyatini o'rganish va ularni boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida tadqiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Elektron ta'lim resurslari (ETR) — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida yaratilgan o'quv materiallari bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- elektron darsliklar
- multimedia (audio, video, animatsiya)
- interaktiv mashqlar va testlar
- onlayn platformalar va mobil ilovalar

Ular o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida vositachi rolini bajaradi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etadi.

Elektron ta'lim resurslarining pedagogik salohiyati juda keng. Ko'rgazmalilik va tushunarlilikni oshiradi. Animatsiya va vizual materiallar mavzuni oson tushunishga yordam beradi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda muhim. Masalan, elektron taqdimotlar orqali mavzu "jonlanadi" va oson o'zlashtiriladi. Testlar, o'yinlar, mashqlar orqali o'quvchi faol bo'ladi, "passiv tinglovchi" emas, balki faol ishtirokchi bo'ladi. Har bir o'quvchi o'z tezligida o'rganadi, qiyin mavzularni qayta ko'rib chiqish mumkin. O'quvchi o'zi izlanadi, mustaqil bilim olish ko'nikmasi shakllanadi. Bu esa tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Audio + video + matn kombinatsiyasi yaxshi natija beradi. Axborotni eslab qolish darajasi yuqori bo'ladi.

Axborot madaniyati — bu axborotni izlash, uni tahlil qilish, to'g'ri foydalanish, axborot xavfsizligini tushunish, raqamli vositalardan madaniyatli foydalanishdir. Bu hozirgi raqamli jamiyatda asosiy kompetensiya hisoblanadi. Elektron ta'lim resurslari quyidagi yo'llar bilan axborot madaniyatini rivojlantiradi:

1. Axborotni qidirish ko'nikmasi - internet, platformalar orqali ma'lumot topadi, kalit so'z bilan ishlashni o'rganadi.
2. Axborotni tanlash va tahlil qilish - kerakli va keraksiz ma'lumotni ajratadi, ishonchli manbani aniqlaydi.

3. Raqamli vositalardan foydalanish - kompyuter, planshet, ilovalardan foydalanishni o'rganadi, texnik savodxonlik shakllanadi.
4. Media madaniyat shakllanadi - video, audio, matn bilan ishlash, axborotni yaratish (prezentatsiya, loyiha).
5. Axborot xavfsizligi tushunchasi - internetda ehtiyotkorlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish.

Boshlang'ich sinfda ETRdan foydalanish o'quvchilarning qiziqishini oshiradi, o'yin orqali o'qitishni ta'minlaydi, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi, kompyuter bilan ishlash ko'nikmasini shakllantiradi. Masalan, o'yin texnologiyalari va interaktiv platformalar o'quv jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Elektron resurslar o'qituvchiga darsni zamonaviy tashkil etish, vaqtni tejash, baholashni avtomatlashtirish, differensial yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. Elektron ta'lim resurslari zamonaviy ta'limning ajralmas qismi va boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirishning samarali vositasidir, u o'quvchini mustaqil, faol va raqamli savodli shaxsga aylantiradi.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron ta'lim resurslarining pedagogik salohiyati hamda o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirish masalasi bugungi kunda ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o'rganilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, elektron ta'lim vositalarining samaradorligi hamda o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekistonlik olimlardan N.A. Muslimov, Sh.S. Sharipov, B.X. Xodjayev, U.N. Nishonaliyevlarning ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiruvchi, o'quv jarayonini individuallashtiruvchi va uning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, boshlang'ich ta'limda innovatsion yondashuvlarni qo'llash bo'yicha olib borilgan izlanishlarda elektron resurslarning o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos holda qo'llanishi ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mantiqiy va ijodiy

fikrlashini rivojlantirishi ta'kidlangan. Xorijiy olimlardan M. Prenskiy (Prensky), R. Mayer (Mayer), hamda J. Piaget (Piaget)larning ilmiy qarashlari ham mazkur mavzuni yoritishda muhim ahamiyatga ega. Xususan, M. Prenskiy "raqamli avlod" tushunchasini ilgari surib, zamonaviy o'quvchilar axborotni asosan raqamli muhit orqali qabul qilishini asoslab bergan. R. Mayerning multimedia ta'lim nazariyasiga ko'ra, axborotni bir vaqtning o'zida vizual va audio shaklda berish o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi. J. Piaget esa bolalarning kognitiv rivojlanish nazariyasida ta'lim jarayonida faol ishtirok va tajriba orqali o'rganish muhimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, axborot madaniyati tushunchasi A.V. Sokolov, N.I. Gendina kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ular axborot madaniyatini shaxsning axborotni izlash, tahlil qilish, qayta ishlash va undan samarali foydalanish ko'nikmalarining majmui sifatida talqin etadilar. Ushbu yondashuv elektron ta'lim resurslarining aynan shu ko'nikmalarni shakllantirishdagi ahamiyatini asoslashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda elektron ta'lim resurslari o'quvchilarda nafaqat bilim, balki axborot bilan ishlash kompetensiyalarini ham rivojlantirishga xizmat qilishi, ularning axborot madaniyatini shakllantirishda samarali vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektron ta'lim resurslari zamonaviy ta'limning muhim komponenti bo'lib, ular boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Biroq, mazkur yo'nalishda aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida elektron resurslardan foydalanish metodikasini yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda elektron ta'lim resurslarining pedagogik salohiyatini aniqlash va asoslash maqsadida kompleks yondashuv asosida turli ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish orqali elektron ta'lim resurslarining mazmun-mohiyati hamda ularning pedagogik imkoniyatlari aniqlab olindi. Kuzatish, suhbat, so'rovnoma va test sinovlari orqali boshlang'ich sinf

o'quvchilarining axborot madaniyati darajasi o'rganildi; Ishlab chiqilgan metodik yondashuv va elektron ta'lim resurslari amaliyotga joriy etilib, ularning samaradorligi aniqlashtirildi. Tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'zaro solishtirilib, elektron resurslarning ta'lim jarayoniga ta'siri baholandi. Olingan natijalarni matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlash va umumlashtirish orqali tadqiqot xulosalari asoslandi. Tadqiqot jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olindi hamda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning samarali metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, elektron ta'lim resurslarining o'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik salohiyatini aniqlashga xizmat qildi.

"Interaktiv elektron matn asosida axborotni tahlil qilish metodi" o'qish savodxonligini rivojlantiradi, axborot bilan ishlashni o'rgatadi va elektron resursni markazga qo'yadi. Bu metod orqali o'quvchilar elektron matn bilan ishlaydi. Matn asosida topshiriqlar bajaradi. Axborotni topadi, tushunadi, tahlil qiladi hamda baholaydi.

1-bosqich: Motivatsiya - qisqa video yoki rasm (elektron), mavzuga kirish

2-bosqich: Elektron matn bilan tanishish - planshet / telefon / slayd orqali matn beriladi

3-bosqich: Axborotni aniqlash - savollar: Kim?, Nima bo'ldi?, Qayerda?

4-bosqich: Tahlil qilish – "Nega shunday bo'ldi?", "Qahramon to'g'ri ish qildimi?"

5-bosqich: Baholash va fikr bildirish - o'z fikrini aytadi, muqobil yechim taklif qiladi

6-bosqich: Elektron topshiriq - test / matching / quiz



TEMIR QOZOQ. 3-TOPSHIRIQ

Случайные карты

Частное



TEMIR QOZIQ. 2-TOPSHIRIQ

Упорядочивание

Частное



TEMIR QOZIQ. 1-TOPSHIRIQ

Викторина

Частное

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi va axborot madaniyatini rivojlantirish maqsadida "Interaktiv elektron matn asosida axborotni tahlil qilish metodi" ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mazkur metod elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etilib, o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida axborotni izlash, tushunish, tahlil qilish va baholash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratildi.

Metod quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

1. Motivatsiya bosqichi – o'quvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otish;
2. Elektron matn bilan tanishish bosqichi;
3. Axborotni aniqlash bosqichi;
4. Tahlil qilish bosqichi;
5. Fikr bildirish va baholash bosqichi;
6. Interaktiv topshiriqlar orqali mustahkamlash bosqichi.

Mazkur metodni qo'llash jarayonida o'quvchilarning faolligi oshgani, mustaqil fikrlash va axborot bilan ishlash ko'nikmalari rivojlangani kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari 4-sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Tadqiqotda jami 2 ta guruh shakllantirildi. Tajriba guruhi – elektron ta'lim resurslari asosida o'qitildi. Nazorat guruhi – an'anaviy usulda o'qitildi.

Guruhlar	O'quvchilar soni	O'qitish usuli
Tajriba guruhi	25 nafar	Elektron resurslar asosida
Nazorat guruhi	25 nafar	An'anaviy usul
Jami	50 nafar	—

Boshlang'ich ko'rsatkichlar (diagnostika natijalari)

Daraja	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Yuqori	20%	22%
O'rta	44%	40%
Past	36%	38%

Tajriba yakunidagi natijalar

Daraja	Tajriba guruhi (%)	Nazorat guruhi (%)
Yuqori	48%	28%
O'rta	40%	42%
Past	12%	30%

Olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qish savodxonligi va axborot madaniyatini sezilarli darajada oshirdi. Xususan, tajriba guruhida yuqori darajadagi o'quvchilar ulushi 20 foizdan 48 foizga oshgani, past darajadagi o'quvchilar esa 36 foizdan 12 foizga kamaygani kuzatildi. Nazorat guruhida esa sezilarli o'zgarish qayd etilmadi. Mazkur natijalar ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi hamda elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot madaniyatini shakllantirishdagi muhim pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida elektron ta'lim resurslarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik salohiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, elektron ta'lim resurslari o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, interaktiv va multimediya vositalaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning faolligini kuchaytiradi hamda mustaqil fikrlashga undaydi. Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, elektron ta'lim resurslari asosida tashkil etilgan darslar natijasida o'quvchilarning bilim darajasi sezilarli oshdi, past ko'rsatkichlar kamaydi va yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar ulushi ortdi. Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, tadqiqot natijalariga ko'ra, elektron ta'lim resurslari boshlang'ich sinf o'quvchilarida axborot madaniyatining quyidagi tarkibiy qismlarini shakllantirishga xizmat qilishi aniqlandi:

- axborotni izlash va tanlash;

- axborotni tahlil qilish va baholash;
- raqamli vositalardan foydalanish;
- mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari suriladi. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga elektron ta'lim resurslarini tizimli va maqsadli joriy etish zarur. O'qituvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha malakasini oshirish lozim. O'qish savodxonligi darslari uchun maxsus interaktiv elektron metodik qo'llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq. O'quvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini kengaytirish tavsiya etiladi. Elektron ta'lim resurslaridan foydalanishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarur. Xulosa qilib aytganda, elektron ta'lim resurslari boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborot madaniyatini shakllantirishda samarali pedagogik vosita bo'lib, ularni ta'lim jarayonida keng qo'llash zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini rivojlantirishga oid qarorlari.
4. Muslimov N.A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2015.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent, 2017.
6. Nishonaliyev U.N. Ta'limda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2018.
7. Mayer R. *Multimedia Learning*. – Cambridge University Press, 2009.
8. Sokolov A.V. *Informatsionnaya kultura lichnosti*. – Moskva, 2000.
9. Gendina N.I. *Informatsionnaya kultura*. – Moskva, 2005.